



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

VIRUSLI GEPATIT INFEKSIYALARNI KELIB CHIQARUVCHI SABABLARI

Nazirova Hilola Abdulatif qizi

Beshariq Abu Ali Ibn Sino Nomidagi jamoat salomatligi Texnikumi o'qtuvchisi

Annotatsiya

Virusli hepatit kasalligi ko‘p uchrayidigan kasallik bo‘lib, uni (HAV) hepatiti virusi qo‘zg‘atadi. Uning asosiy belgisi o‘tkir respirator kasallik belgilariga o‘xshab o‘tkir kechib, bolada tomoq qizarishi.

Isitma, holsizlik belgilari paydo bo‘lib, ahvoli o‘g‘irlashadi, so‘ngra bemorni shilliq parda va terisida sarg‘ayadi.

Аннотация:

Вирусный гепатит — распространённое заболевание, вызываемое вирусом гепатита А (HAV). Основным симптомом является покраснение горла у ребенка и острое начало, напоминающее симптомы острого респираторного заболевания.

Появляются симптомы лихорадки, слабости и недомогания, затем у больного появляется сильный кашель и желтушность кожи.

Annotatsiva

Viral hepatitis is a common disease caused by the hepatitis A virus (HAV). Its main symptom is a sore throat in a child, which is similar to the symptoms of acute respiratory infections. Fever, weakness, and malaise appear, and then the patient's mucous membranes and skin turn yellow.

Kalit so’zlar: Gepatit,respirator,simptom,

Ключевых слова: Гепатит, респираторный, симптом.

Key words: Hepatitis, respiratory, symptom



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

Etiologiyasi va epidemiologiyasi.

Gepatit A virusi najas bilan ajraladi, fekal-oral yo‘l bilan tarqaladi va shu sababli odamning kasallanishi ko‘p jihatidan gigiyenik muhitga bog‘liq bo‘ladi Gigiyenik muhit yomon bo‘lgan jamoalarda asosan go‘daklar va maktabgacha yoshdagি bolalar bu kasallikni yuqtirishadi. Fekal-oral yo‘l bilan tarqaladigan kasalliklar paydo bo‘lishiga suv ta’mnoti va kanalizatsiya tizimi holati ta’sir qiladi. Virusli E gepatiti bilan kasallanganlar orasida A gepatiti bilan kasallanganlarga nisbatan o‘lim 10 barobar ko‘p qayd etilgan. Amalda esa shu virus bilan kasallangan homilador ayollarning 20 % o‘lim xavfi ostida bo‘ladi. Osiyoda E va A gepatit bilan kasallanish kuzda avjiga chiqadi. Janubi-Sharqiy Osiyoda virusli gepatit E yomg‘ir mavsumida keng, katta suv toshqinlaridan keyin fekal-oral yo‘l orqali tarqaladi. Asosan, u suv infeksiyasi deb qabul qilingan. Virusli gepatit E tez-tez kuzatilgan jamoada IgG antitelolarni tashuvchilari 80 %dan oshib ketadi. Gepatit E aslida E (hepatitis E virus, HEV) gepatit virusi sababli yuzaga keladi va kasallik kechishi surunkali emas, balki o‘tkir kechish xususiyatiga ega bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda E gepatiti yagona barqaror (epidemik bo‘lmagan) kasallikdir. Bu kasallik zararlangan suv orqali keng masshtabli ko‘lamga ega bo‘lishi mumkin. Yaqin o‘rtalarda E virusi bor bo‘lgan mamlakatlarga bormagan rivojlangan mamlakatlar fuqarolarida E gepatit virusining geni aniqlangan. Bundan tashqari cho‘chqada ham shunga o‘xshagan genetik virus topilgan. Bu va boshqa bir qancha dalillar E gepatiti zoonoz yuqumli kasalligi ekanligini isbotlaydi.

Klimnikasi

Zararlanish vaqtidan boshlab 28 kunlik inkubatsion davrdan keyin isitma 38 °C bo‘lganda (yuqoridagi barcha holatlarda kuzatilgan simptomlar), A gepatiti keskin rivojlanish xususiyatiga ega. 50 %dan ortiq holatlarda umumiy darmonsizlik, anoreksiya, ko‘ngil aynish va quşish kuzatiladi. Shuningdek, qorinda og‘riq, diariya, bosh og‘rig‘i, tomoq og‘rig‘i va shu kabilar kuzatiladi. Sariq kasal deyarli barcha katta yoshdagи kishilarda va 1/4 bolalarda uchraydi. Gepatit A, odatda, yengil kechib bir-ikki oy ichida jigar foaliyati me’yoriga keladi va, ayniqsa, bolalarda u yengil kechib, ular tez sog‘ayib ketadilar. A gepatitni davolashning maxsus usullari yo‘q. Tinchlikni ta’minalash va ovqatlanish ustidan nazorat qilishga qaratilgani instruktaj



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

parvarishning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Gepatit E ning klinik kechishi, A gepatitning klinik kechishiga o‘xshaydi. klinik ko‘rinishi asosan sariq kasal bilan birga kechadigan o‘tkir gepatit bilan ta’riflanadi. 6 oylik inkubatsion davrdan so‘ng isitma, ko‘ngil aynishi, qorin og‘rig‘i va shu kabi belgilar yuzaga chiqa boshlaydi, vaqtı-vaqtı bilan diareya kuzatiladi, ba’zida u darmonsizlik. anoreksiya va boshqa simptomlardan oldin yuzaga keladi. E gepatitning tipik simptomi bo‘lgan sariq kasallik qichish. Gepatit E bilan kasallanish yakka holatlarda umumiy ta’rifga ega: katta yoshdagি kishilar va o‘sib kelayotgan yosh bolalarga qaraganda kasallanish ehtimoli ancha yuqoridir. Biroq E gepatiti katta yoshdagи kishilarga nisbatan bolalarda ko‘proq uchraydi.

Parvarishlash.

Bemorni yotoq rejimiga rioya qildirish .Ruhiy tinchlik yaratish, bezovtalikni kamaytirish.Zarur bo‘lsa, bemorga hojatxonaga borishda yoki harakatda yordam berish.

Yog‘li, achchiq, qovurilgan ovqatlar taqiqlanadi.

Oqsilga boy, vitaminli, yengil hazm bo‘ladigan ovqatlar (masalan, bug‘da pishirilgan sabzavotlar, go‘sht, mevalar).

Ko‘p suyuqlik ichishga e’tibor berish (sho‘r suv, mineral suv, kompot).

Ovqatni kam-kam, tez-tez berish (kuniga 4–5 mahal).

Shaxsiy gigiyena qoidalarini o‘rgatish (qo‘l yuvishdan boshlab).

Foydalanilgan idish, sochiq, hojatxona anjomlarini alohida saqlash.

Bo‘limda gigiyenik tartibni qat’iy saqlash.Tibbiy xodimlar qo‘lqopda ishlashi zarur.Harorat bo‘lsa, uni tushirish (salqin kompress, dori vositalari).Ko‘ngil aynishi yoki quşish bo‘lsa, og‘zini chayqatish va suyuqlik berish.O‘ng qovurg‘a osti sohasida og‘riq bo‘lsa, tinch yotishini ta’minlash.Bemor bilan muloyim, tushunarli tilda suhbatlashish.Kasallik haqida to‘g‘ri ma’lumot berish, asabiy holatni kamaytirish.Yaqinlari bilan hamkorlik qilish (ularni ham gigiyena choralariga o‘rgatish).Tana harorati, yurak urishi, qon bosimi, siydik miqdorini nazorat qilish.Vrach buyruqlari asosida dorilarni belgilangan vaqtida berish.Har bir holatni hamshiralik varaqasiga yozib borish.

Kasallikdan so‘ng bemorga oz-ozdan jismoniy faoliyatni tiklashni o‘rgatish.Maxsus



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

profilaktika va umumiyl profilaktika ishlari olib boriladi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati

1. H.I.Shukurov, S.Q.Qanoatov 2016 | "Jamoada hamshiralik ishi"
Q.S.Inomov 2007 "Hamshiralik ishi"